

TURON SIVILIZATSIYASI TRANSFORMATSIYASI: ILK DEHQONCHILIK MADANIYATIDAN IERARXIK JAMIYAT SARI

Rasulova Sevara Chariyerovna

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

sevararasulova1991@yandex.ru

<https://orcid.org/0009-0000-7023-5938>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Oks sivilizatsiyasining shimoliy Baqtriya tarixiy viloyatida joylashgan Sopolli madaniyati yodgorliklari misolida o'zbek davlatchiligi tarixida ilk dehqonchilik madaniyati, ilk shahar yoki ilk shahar-davlatlarning tashkil topishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Qadimgi Sharq, Turon, Oks sivilizatsiyasi, Sopolli madaniyati, Jarqo'ton, Sapollitepa, madaniy aloqalar.

Аннотация. В данной статье на примере памятников сополлийской культуры Оксусской цивилизации, расположенных в историческом регионе Северной Бактрии, представлена информация о формировании первой земледельческой культуры, первого города или первых городов-государств в истории узбекской государственности.

Ключевые слова. Древний Восток, Туран, цивилизация Окса, культура Сапалли, Джаркутан, Сапаллитепа, культурные связи.

Abstract. This article provides information about the formation of the first agricultural culture, the first city or the first city-states in the history of Uzbek statehood, using the example of the monuments of the Sopolli culture of the Oxus civilization, located in the historical region of northern Bactria.

Keywords. Ancient East, Turan, Oxus civilization, Sapalli culture, DJarkutan, Sapallitepa, cultural ties.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Sakkiz asr davomida mavjud bo'lgan Oks sivilizatsiyasini ibtido, rivojlanish va intiho davrlarini mil. avv. 2300 — 1450 xronologik yillar bilan davrlashtiriladi.[7, 26-28-b.] XX asrning 60 — 90 — yillarigacha, Oks sivilizatsiyasining lokal hududi Janubiy O'zbekistonning Sopolli

madaniyati, Shimoliy Afg'onistonning Dashtli hamda Janubiy Turkmanistonning Namozgoh madaniyatlarining majmuidan iboratdir. Bugungi kunga kelib, Oks sivilizatsiyasiga oid madaniy yodgorliklar janubiy — g'arbiy Tojikiston, shimoliy-sharqiy Eron mintaqalaridan topilgan. Oks sivilizatsiyasining madaniy aloqalarida transformatsion jarayonlar ko'lamini shimolda andronova dashtliklari, janubiy — g'arbda Elam Eroni, janubiy — sharqda Hind vodiysi, umuman olganda, Orol dan toki Fors ko'rfazigacha bo'lgan katta dinamik maydonni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mazkur maqolada Oks sivilizatsiyasi yodgorliklarida XX asrning 60 — yillaridan toki hozirga qadar olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar natijalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar, monografiyalar, shuningdek, o'zbek davlatchiligiga oid kitoblar tarixiy tahlillangan. Maqolada shuningdek, tarixiy-qiyosiy, tarixiy — tanqid va xolislik metodlaridan samarali foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Turon mintaqasidagi o'zbek davlatchiligi tarixining qiyosiy tahlili jarayoniga nazar tashlanar ekan, o'zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchilik tarixi bilan bog'liq fikr va mulohazalar bir necha kitoblar sharhi bilan boshlanadi. Jumladan, A. Sagdullayev, B. Aminov, O'. Mavlonov, N. Norqulovlar muallifligida 2000-yilda nashr etilgan "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti" deb nomlangan kitobning birinchi qismida o'zbek davlatchiligi ildizlari dehqonchilik vohalari bilan bog'liq holda shakllangan, deb e'tirof etilgan. Xususan, jahon tarixidagi ilk davlatlarning shakllanish jarayonlari dehqonchilik sohasining rivoji bilan

chambarchasdir. Tarixdan ma'lumki eng qadimgi davlatlar mil. avv. IV mingyillikda Ikki daryo oralig'i va Qadimgi Misrda paydo bo'lgan. Asta-sekin dehqonchilik bu mintaqalardan qo'shni hududlarga (Kavkazorti, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoyga) tarqalgan. Mil. avv. III-II mingyillikda esa Qadimgi Sharq aholisi o'rtasida madaniy aloqalar eng rivojlangan davri sanaladi. Yuqoridagi mualliflar jamoasi Turon hududidagi ilk davlatchilikning boshlanishini mil. avv. II mingyillik o'rtalarida Surxon vohasida bronza davrida qadimgi dehqonchilik madaniyati rivojlanishi asosida shakllangan, deb ta'kidlagan.[6, 272-b.] Bu esa ilk davlatchilikning tamal toshi aynan Oks sivilizatsiyasining Sopolli madaniyati yodgorliklarining davlatchilik tarixidagi o'rniga ishoradir.

Ushbu mavzu doirasida qiyosiy tahlilni davom ettirilar ekan, Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchilik tarixi" kitobida o'zbek xalqi davlatchilik tarixi mil. avv. I mingyillik bilan uzil-kesil bog'langan. Mil. avv. I mingyillik zamonasi uchun jadal va sermazmun siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy xalqaro savdo – sotiq munosabatlari tizginsiz bir cheksizlikka kechganmi yoki ularni jilovlab turadigan, manfaatli ravishda tartib doirasida soluvchi iyerarxik jamiyatga o'xshash tizim mavjud bo'lganmi? Xususan bu tizim davlat, aynan davlatchilik tizimidir ammo uning xronologik doirasi mil. avvalgi I mingyillikning birinchi yarmida aniqrog'i VI asr bilan bevosita bog'langan.[1, 27-b]

O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika Davlat Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix Instituti va Inson Huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi tomonidan E.V. Rtveladze, A.X. Saidov hamda E.V. Abdullayevlar tomonidan 2001-yilda "Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar" nomli asarida mualliflar tomonidan Qadimgi O'zbekistonning davlatchiligi va huquqi tarixiga bag'ishlangan tarixiy tahlil keltirib o'tilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 10 yilligiga bag'ishlangan ushbu asarda hozirgacha tarix va yuridik fanlarida yetarli darajada yoritilmagan muhim

muammolar birinchi marta qarab chiqiladi, jumladan davlat va huquq institutlari, pul munosabatlari, soliq xizmati, yozuv, diplomatiya, zardushtiylik dinining paydo bo'lishi masalalari yoritiladi. Kitobning ilova qismida esa O'rta Osiyoning muhim huquqiy yodgorligi sifatida "Avesto" ning "Vandidad" tarjimasini birinchi marta keltirilgan. Shu jumladan ushbu asarda O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatlar rivojlanishining davrlarga bo'lish jarayonida Markaziy Osiyoda davlatchilik evolyutsiyasini mil. avv. II mingyillikning II yarmi, mil. avv. III asrgacha – yangi eraning IV asri oralig'idagi vaqtni qamrab olgan bir necha davrlarga ajratgan holda davrlashtiriladi. Davlatchilikning ilk shakli qaror topishi O'zbekiston janubidagi so'ngi bronza davrining o'troq – dehqonchilik madaniyatida bilan asoslanadi. Uning intihosi esa O'rta Osiyo hududida yangi eraning birinchi yarmida mavjud bo'lgan Kushon va Parfiya imperiyalari halokati bilan deyarli bir vaqtga to'g'ri keladi. Qang' davlati ham taxminan xuddi shu davrda inqirozga uchraydi. Olimlar tomonidan davlatchilik evolyutsiyasining birinchi davrini miloddan avvalgi II mingyillikning II yarmi – O'zbekiston janubidagi "embrional" shakldagi davlatga o'xshash tuzilmani qaroq topishi sifatida baholanadi. Davlatning ilk namunasi Sopolli madaniyatining Jarqo'ton yodgorligi misolida keltirilgan.[16, 48-c.]

XIX asrning so'ngi yillari XX asr boshlarida sovet tadqiqotchilari tomonidan Markaziy Osiyo tarixini o'rganish va arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etish borasida bir necha qadamlar tashlangan. Xususan, I.M. Dyankonov[14, 121-140-c.], V.V. Bartold [11, 257-282-c.], S.P. Tolstov [21, 352-c.], E.E. Kuzmina [15, 37-52-c.], I.V. Sarianidi [18, 184-c; 19, 279-c; 20, 160-c.] hamda mahalliy tadqiqotchilar A.A. Asqarov, T.Sh. Shirinov, Sh.B. Shaydullayev, A.A. Abdullayevlar tomonidan Turon diyorining janubiy mintaqalari Surxondaryo viloyatida bir necha arxeologik ekspeditsiyalar natijasida Sopolli madaniyatining bir necha yodgorliklarini ochishga muvaffaq bo'lganlar [8, 232-c; 9, 172-c; 10, 122-c; 26, 245-b]. A.S. Sagdullayev o'zining Qadimgi Baqtriyaning tarixi va

aholisining ijtimoiy — madaniy tarixiga bag'ishlangan risolasida eng dolzarb masala sifatida Turondagi ilk davlat birlashmalari va ularning siyosiy tuzumi masalasi muhokama etilgan.[17, 122-c.] Shimoliy Baqtriya hududida Sopolli madaniyati tarixshunosligiga nazar tashlanar ekan, o'tgan asrning 60-yillaridan toki 1991-yillargacha, bir necha o'nlab va hattoki yuzlab ilmiy nashrlar, monografiyalar yozilib, Oks sivilizatsiyasining shakllanish evolyutsiyasida fundamental tadqiqotlar hisoblanadi.

Shu o'rinda aytish lozimki, B. Eshovning risolasida Sopolli madaniyatining obyektlariga “qishloq” deya ta'rif berilgan, bu madaniyatning ibtidosi neolit davrida “hisorlik” ovchilar kichik va yirik daryolar vohalarini, Boysuntog' va Ko'hitanggacha bo'lgan tog'li hududlarni o'zlashtirish jarayonidan boshlangan. Bronza davrida esa bu hududlar o'ziga xos xo'jalik shaklidagi yangi madaniyatlar shakllangan. Mil. avv. II mingyillikning II choragida Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Sopollitepa kabi qishloqlar paydo bo'lgan[2, 27-b]. Muallifning fikricha, Sopollitepa bronza davridagi ilk o'troq dehqonchilik madaniyati hisoblangan. Keyinchalik o'troq dehqon jamoalari shimoliy chegaralarining kengayishida ilgarigi ahamiyatini yo'qotgan, asosiy markaz vazifasi tog' darasidan chiquvchi yo'l ustidagi mustahkam qal'a sifatida paydo bo'lgan Jarqo'tonga o'tgan.

A.A. Asqarov, T.Sh. Shirinovlar Sopolli madaniyatining aholisi tomonidan yaratilgan hunarmandchilik buyumlari, ayniqsa shaharning o'ziga xos T shaklidagi qurilishi hamda aholisining diniy sohadagi erishgan yutuqlari inobatga olinib Jarqo'ton Turonning bronza davridagi ilk shahridir, deb asoslangan [27, 215-c.].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Turon davlatchilik tarixida prof. Sh.B. Shaydullayevning 2009-yil doktorlik dissertatsiyasida birinchi prezidentimiz tomonidan tarixchilar e'tiboriga havola etilgan: “o'zbek davlatchiligi tarixi qachondan boshlangan...” qabilidagi savolga arxeolog tomonidan Sopolli madaniyati yodgorliklarida olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar

natijalari bilan aniq javob qaytarilgan. Professorning 25 yillik arxeologik izlanishlari natijasida Sopolli madaniyatining “shox” yodgorligi deb atalmish Jarqo'ton yodgorligi misolida isbotlagan va fanda yashayotgan bir necha ilmiy g'oyalarning haqqoniyligini yo'qqa chiqargan.[25, 49-b] Xususan Sopolli madaniyatining Jarqo'ton yodgorligi Turonning ilk shahar-davlat shaklidagi siyosiy tuzilma ekanligiga quyidagi 7 ta ilmiy xulosa bilan dalillangan:

Birinchidan, Jarqo'ton yodgorligi geografik jihatdan Qadimgi Sharq shahar-davlatlariga xosdir. Uning aholisi hunarmandchilik, me'morchilik, zargarchilik, metallsozlik va san'at sohasidagi erishgan yutuqlari bilan Qadimgi Sharq shahar-davlatlari evolyutsiyasi darajasida bo'lgan.

Ikkinchidan, Jarqo'ton shahar-davlatining poytaxti “Jarqo'ton olov ibodatxonasi” da joylashgan. 6-tepalikdagi monumental inshoot nafaqat ibodatxona, balki saroy — ibodatxonadir.

Uchinchidan, ilk davlatlarning shakllanishi bilan dinning ham markazlashuv jarayonining kechishi tabiiy holder, Jarqo'ton saroy-ibodatxonasining bunyod etilishi bu fikrning isbotidir. Shu bilan bir qatorda jamoalar sig'inib kelgan din ko'rinishlari ham saqlangan.

To'rtinchidan, sivilizatsiyaning asosiy ko'rinishi bo'lgan yozuv ham Sopolli madaniyati davrida kashf etilgan. Piktografik belgili yozuv Jarqo'ton sopollarida 52 ta xili kuzatilgan bo'lib, bu belgilarning tarqalish hududi markaziy va shimoliy Eron dan Hindgacha yetgan.

Beshinchidan, shaxsiy mulk va davlatchilik arxeologik bo'lgan Sopolli madaniyati muhrlari ilk marta klassifikatsiya qilingan[23, 64-72-b; 24, 43-50-b.].

Oltinchidan, Sopolli madaniyati aholisi ham xalqaro aloqalarga asos slogan xalqdir. Xarappa, Eron va dashtliklar bilan bevosita, Suriya, Xett, Mesopotamiya bilan bilvosita savdo qilgan.

Yettinchidan esa, oksliklar Anov-Namozgoh, Murg'ob, Dashtli, Markaziy va Shimoliy Eron aholisi bilan yagona etnik guruhni tashkil etgan xalqlardir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ) /

CONCLUSION). Ilm-fan va texnologiyaning yuqori suratdagi rivoji hamda jahon xalqlari tarixining globallashuvi fonida XXI asrning o'n yilliklarida Turon mintaqasida xuddi Qadimgi Sharq singari o'ziga xos, qaytarilmas moddiy madaniyatga ega yana bir sivilizatsion makon mavjudligi to'g'risidagi ilmiy nazariyalar tug'ildi [13, 22-b.] va jahon jamoatchiligi tomonidan "Oks sivilizatsiya" si tan olindi [4, 398-405-p; 12, 176-b; 3, 111-129-p; 5, 932-p.].

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. – Toshkent: Sharq, 2001. – 368 b.
2. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangiyul, 2012. – 352 b.
3. Francfort H. -P. Observations sur la toreutique de la civilisation de l'Oxus, dans Osmund Boppearachchi, Marie-Franzoise Boussac., Afghanistan, ancien carrefour entre l'Est et l'Ouest, Turnhout, 2005. -P. 111-129.
4. Lamberg-Korlovsky C.C. The Bronze Age khanates of Central Asia. Antiquity 68, 1994. - P. 398-405.
5. Lyonet B., Dubova N. The world of Oxus civilization / — London & New York:Routledge, 2021. — P. 932.
6. Sagdullayev A., Aminov B., Mavlonov O'., Norqulov N. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism. – Toshkent: Akademiya, 2000. – 272 b.
7. Xamidov O. A. Kattayeva G. Ch. Oks sivilizatsiyasi bo'yicha 2023-yilda nashr etilgan yangi tadqiqotlar: 3.1-qism ("Qadimgi Sharq arxeologiyasi bo'yicha 12-xalqaro konferensiya materiallari" to'plami misolida). O'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2024, [1/8]. C. 26-28.
8. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы на юге Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977. - 232 с.
9. Аскарлов А.А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973. — 172 с.
10. Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. – Ташкент: Фан, 1983. – 122 с.
11. Бартольд В.В. К истории персидского эпоса // Записки Восточного отделения Российского Археологического общества. Т. XXII, 1915. – С. 257-282.
12. Бокиев А., Шайдуллаев А., Йўлдошева З. Окс цивилизацияси. – Т.: Янги нашр, 2015. — 176 б.
13. Бокиев А.А. Окс цивилизациясининг ижтимоий характери: Автореф. дис. ... Фалсафа фанлари илмий даражасини олиш учун (PhD). – Термиз, 2021. — 22 б.
14. Дьяконов М.М. Сложение классового общества в северной Бактрии //СА. 1954. — Вып. 19. – С. 121-140.
15. Кузьмина Е.Е. Бактрийский мираж и археологическая действительность // ВДИ. — № 2. 1978. – С. 37-52.
16. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Кадимги Узбекистон цивилизацияси. Давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Адолат, 2001. – 552 б.
17. Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. — Ташкент:Фан, 1987. – 122 с.
18. Сарианида В.И. Древние земледельцы Афганистана. — М.: Наука, 1977. - 184 с.
19. Сарианиди В.И. Маргуш. Древневосточное царство в старой дельте реки Мургаб. — Ашгабат, 2002. – 279 с.
20. Сарианиди В.И. Раскопки Тилля-тепе в северном Афганистане. — М., 1972. — Вып. I. – 160 с.
21. Толстов С.П. Древний Хорезм. М., 1948. – 352 с.
22. Толстов С.П. Основные вопросы древней истории Средней Азии // ВДИ. 1938 -№ 1. — С. 176-203.

23. Шайдуллаев А.Ш. “Авеста”да Митра образи. О‘zbekiston tarixi. 2018. — № 4. — С. 64-72.
24. Шайдуллаев А.Ш. Сополли маданияти глиптикасида геометрик тасвирлар // Археология Узбекистана. 2017. — № 1 (14). — С. 43-50.
25. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари: Автореф....дис. ЎзР ФА Археология институти. — Самарқанд, 2009. — 49 с.
26. Ширинов Т. Жанубий Ўзбекистон бронза даври илк шаҳар маданияти. — Самарқанд, 1993. — 245 с.
27. Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Узбекистана. — Самарканд: узбекистон республикасининг Фанлар Академияси Я.Гуломов номидаги археология институтининг нашри, 1993. — 215 с.